

**BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/12.02.2025.Ped.167.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI

NARZULLOYEV YASHIN UCHQUN O‘G‘LI

**BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI TYUTORLIK FAOLIYATIGA
INNOVATSION TAYYORLASH TEXNOLOGIYALARI**

13.00.01 –Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Buxoro – 2025

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Narzulloev Yashin Uchqun o'g'li

Bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga innovatsion tayyorlash
texnologiyalari3

Нарзуллоев Яшин Учкун угли

Технологии инновационной подготовки будущих учителей к тьюторской
деятельности.....23

Narzulloev Yashin Uchqun ugli

Technologies of innovative training for future teachers in tutoring.....45

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of published works.....49

**BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/12.02.2025.Ped.167.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI

NARZULLOYEV YASHIN UCHQUN O'G'LI

**BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI TYUTORLIK FAOLIYATIGA
INNOVATSION TAYYORLASH TEXNOLOGIYALARI**

13.00.01 –Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Buxoro – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Ped4830 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Navoiy davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdpi.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Olimov Shirinboy Sharofovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Izbullayeva Gulchehra Valeriyevna
pedagogika fanlari doktori., (DSc), professor

Xajiyeva Maqsuda Sultanovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/12.02.2025.Ped.167.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil "16" dekabr soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200130, Buxoro shahri, Piridastgir ko'chasi, 2-uy. Tel.: 0(365) 226-10-97; faks: 0(365)226-66-75, e-mail: buxdpi@buxdpi.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat pedagogika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (7 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200130, Buxoro shahri, Piridastgir ko'chasi, 2-uy. Tel.: 0(65) 226-10-97.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "1" dekabr kuni tarqatildi.

(2025 yil "1" dekabr dagi 7 raqamli reestr bayonnomasi.)



B.B. Ma'murov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, p.f.d., (DSc), professor

G.R. Akramova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, p.f.d., (DSc), professor

A.Z. Sharipov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi o'rinbosari, f.f.d., (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon ta'lim muassasalarida tyutorlik faoliyati orqali yoshlarni jamiyat uchun kerakli va uni boshqaradigan yetuk mutaxassislar tayyorlash texnologiyalari amaliyotga tatbiq etilmoqda. Buyuk Britaniyaning UKAT¹ (UK Advising and Tutoring Associatsion) dasturi oliy ta'limda akademik tyutorlikni rivojlantirish, bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlash orqali talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish ko'nikmalarini takomillashtirishga qaratilgan loyihalarni amaliyotga tatbiq etishga qaratilgan tizimli ishlar olib borilmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida talabalarni tyutorlik faoliyatiga innovatsion tayyorlashning eng maqbul hamda samarali modellarini ishlab chiqish, innovatsion ta'lim muhitini tashkil etish va amalga oshirishning metodik ta'minotini takomillashtirish bo'yicha izlanishlar olib borilmoqda. Zamonaviy ta'lim jarayonini tashkil etishda o'qitish shakllari va metodlarini modernizatsiyalash, tyutorlik faoliyatiga innovatsion tayyorlash usullarini, ilmiy asoslarini ishlab chiqish, shuningdek, tyutorlarning metodik kompetentligini shakllantirishning zamonaviy metodik tizimini ishlab chiqish va uni amalga oshirishning pedagogik sharoitlarini belgilash, o'quv materiallarini mazmunan takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida ahamiyat berilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda oliy ta'limning jozibadorligi va raqobatbardoshligini yangi bosqichga ko'tarish, talabalarning ta'lim trayektoriyasi, mustaqil ta'lim, darsdan bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, ijtimoiy (oilaviy) holatidan doimiy xabardor bo'lishning meyoriy asoslari yaratilmoqda. Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida: "ta'lim sifatini ta'minlash jarayoniga talabalarni keng jalb etish hamda «tyutorlik» tashkiliy-metodik yordam tizimini joriy etish orqali talabalarning mustaqil ta'lim olish faoliyatini rivojlantirish"² keltiriladi. Bu esa, bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga innovatsion tayyorlash texnologiyalarini takomillashtirishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6 noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2022-yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, shuningdek, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2021 yil 13-sentabrdagi 390 son "Davlat oliy ta'lim muassasalarida tyutorlikni tashkil etish to'g'risida"gi buyrug'i hamda sohaga oid boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning asosiy

¹ <https://www.ukat.ac.uk/>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8 oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni//Qonun hujjatlari ma'lumotlar milliy bazasi, 04.07.2023 y., 06/231070441-son.

ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I.”Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, kasbiy iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamizda oliy ta’lim muassasalari o‘quv-tarbiya jarayonining umumiy tamoyillari va bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini ta’minlashning samarali metod va vositalari A.Abdudodirov, N.Azizxo‘jayeva, F.Yuzlikayevlar; oliy ta’lim muassasalari talabalarini milliy va kasbiy deontologik jihatdan tayyorlash Sh.Olimov, D.Ro‘ziyevlar; oliy ta’limda tyutorlik faoliyati masalalari U.Mahkamov, T.Kulniyazov, N.O‘rinovalar tomonidan tadqiq etilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH)dan tyutorlik faoliyatini umumiy o‘rta ta’limda T.Kovaleva, N.Ribalkinalar; oliy ta’lim tizimida T.Ganjalova, YE.Zotova, A.Mayorova, A.Vifleyemskiylar; tyutorlikni talabalarni qo‘llab-quvvatlash texnologiyasi sifatida T.Shixova, N.Yunyayeva, T.Afanaseva, V.Yeroshin, N.Nemovalar tomonidan tadqiq etilgan.

Xorijdan tyutorning talabalar bilan ish olib borishda individual hamda jamoaviy innovatsion faoliyatni zamonaviy ta’lim sharoitida amalga oshirish ko‘nikmalarini rivojlantirish masalalari E.Gordon, E.Braint, G.Berg, J.Brooks, A.Graesser, T.Heron, S.Moody, R.Parker, P.Vadasy, M.Wallace, B.Wasiklar; oliy ta’limda tyutorlik faoliyati A.Bell, G.Biyers, C.Blekburn, D.Bushsel, R.Wedjere, E.Gordon, L.Deyvi, G.Kavelti, R.Martsano, D.Makkonnellar tomonidan tadqiq etilgan.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, aytish mumkinki, oliy ta’lim muassasalarida tyutorlik faoliyati muammosi bo‘yicha ko‘plab ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan bo‘lsada, oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga innovatsion tayyorlash hamda amaliyotga tatbiq etish psixologik-pedagogik va didaktik imkoniyatlari, metodikasi, ilmiy asoslari to‘liq ochib berilmagan, ularni takomillashtirish muammosi maxsus tadqiq etilmagan. Bu esa, tyutorlik faoliyatiga innovatsion tayyorlash jarayonining zamonaviy shakl, metod va vositalari ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq qilish muammosini tadqiq etish zaruratini taqozo etadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Navoiy davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining I-OT-2024-2025 “Axborotlashgan jamiyatda ilmiy-pedagogik tadqiqotlar integratsiyasi, gibridlashuvi, transformatsiyasi: muammo va yechimlar” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi bo‘lajak o‘qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashning innovatsion texnologiyalarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

bo‘lajak o‘qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash;

bo‘lajak o‘qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga innovatsion tayyorlash modelini takomillashtirish;

bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga innovatsion tayyorlash texnologiyalarini takomillashtirish;

bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlash texnologiyalarining samaradorligini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga innovatsion tayyorlash jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlari Buxoro va Navoiy davlat universitetlari hamda O'zbekiston-Finlandiya pedagogika institutida olib borildi. Tajriba-sinov ishlariga 682 nafar talaba jalb etildi.

Tadqiqotning predmeti oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga innovatsion tayyorlash jarayonining zamonaviy shakl, metod va vositalari.

Tadqiqotning usullari. Maqsadga erishish va qo'yilgan vazifalarni hal qilish uchun quyidagi nazariy va empirik tadqiqot metodlari kompleksidan foydalanildi: pedagogik, psixologik va metodik manbalar, didaktik materiallar, o'quv reja va dasturlar, o'quv-me'yoriy hujjatlar, darslik va o'quv-metodik adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish, suhbat, kuzatish, anketa so'rovi, test, modellashtirish, ekspert baholash, pedagogik tajriba, tadqiqot natijalarini matematik-statistik qayta ishlash metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari, o'z-o'zini tarbiyalash hamda keng hajmdagi ta'lim resurslardan foydalanish, individual va jamoaviy ishni tashkil etish talabalarda o'zgarayotgan ta'lim muhitiga tez moslasha olish, mustaqil qaror qabul qilish, hamkorlikda ishlash va o'zini doimiy rivojlantirishga tayyorlikni ifodalovchi kasbiy kompetensiyalardan iborat "Zamonaviy tyutorlik standarti" ishlab chiqish asosida aniqlangan;

ta'lim-tarbiya rezonansi bosqichlarini (tayyorlov, asosiy, kritik, yakuniy) belgilash asosida bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga innovatsion tayyorlash jarayoni "Future tyutor" o'quv moduli ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq etish asosida takomillashtirilgan;

bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlash modeli innovatsion yondashuvga asoslangan kollaboratsiya, keys-stadi (case-study), "Portfolio", "Blended learning", "Gamification", "Brainstorming", "Describe" texnologiyalarini real (Trenajyor, ko'rgazmalar-va-AKTlar) tabiiy (virtual-stendlar, sun'iy-intellect-materiallari) bosma (ko'rgazmali plakatlar, panolar, chizmalar-va-sxemalar) vositasida qo'llash orqali takomillashtirilgan;

bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga innovatsion tayyorlash samaradorligi reproduktiv, produktiv, qisman izlanuvchi va kreativ mezonlar asosida qoniqarsiz, qoniqarli, yaxshi hamda a'lo darajalar o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlash, shuningdek, mustaqil topshiriqlarni bajarish ko'rsatkichlarining dinamik o'sishini kafolatlash orqali aniqlandi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashga yo'naltirilgan "Tarbiyaviy ishlar texnologiyalari" nomli darslik va elektron dasturiy mahsulotlar ta'minoti yaratilgan;

oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashda an'anaviy va innovatsion yondashuvlarni qiyosiy taqqoslash asosida mashg'ulotlarni tashkil etish hamda "Ta'lim rezonansi" jarayoni mexanizmlari va texnologiyalari takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan yondashuv, usullar va nazariy ma'lumotlarning ilmiy manbalardan olingani, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistika metodlari vositasida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi hamda olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga innovatsion tayyorlashning pedagogik imkoniyatlarini takomillashtirilgan modeli, bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga yo'naltirilgan innovatsion texnologiyalardan foydalanib ta'lim-tarbiyaning zamonaviy usullarining qiyosiy tahlili hamda ularni joriy etish metodikasining ishlab chiqilganligi, nazariy yondashuvlar bilan boyitilganligi, tadqiqot muammosining ijobiy yechimini ta'minlovchi ilmiy yondashuvlarning ilgari surilgani, oliy ta'lim muassasalarida innovatsion yondashuv asosida ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, ta'lim jarayonini tashkil etish, o'quv reja, dasturlarni takomillashtirish bo'yicha ilmiy-metodik tavsiyalarning ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga innovatsion tayyorlash bo'yicha olingan natijalar, ilgari surilgan ilmiy-nazariy xulosalar va umumpedagogik, metodik tavsiyalar oliy ta'lim muassasalari o'quv-uslubiy ta'minotini takomillashtirish uchun xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashning innovatsion texnologiyalarini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy-tadqiqot natijalari asosida:

bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari, o'z-o'zini tarbiyalash hamda keng hajmdagi ta'lim resurslardan foydalanish, individual va jamoaviy ishni tashkil etish talabalarda o'zgarayotgan ta'lim muhitiga tez moslasha olish, mustaqil qaror qabul qilish, hamkorlikda ishlash va o'zini doimiy rivojlantirishga tayyorlikni ifodalovchi kasbiy kompetensiyalardan iborat "Zamonaviy tyutorlik standarti"ga oid taklif va tavsiyalardan Davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida bajarilishi 2020-2022 yillarga mo'ljallangan P3-202005236 raqamli "Oila psixologiyasi fanidan multimediya mahsulotini yaratish" mavzusidagi fundamental loyahasini bajarishda foydalanilgan (Buxoro davlat universitetining 3 yanvar, 2025 yildagi 01-04/21-son ma'lumotnomasi). Natijada bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashning mazmun-mohiyati aniqlashtirilgan;

ta'lim-tarbiya rezonansi bosqichlarini (tayyorlov, asosiy, kritik, yakuniy) belgilash asosida bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga innovatsion tayyorlash jarayoni "Future tutor" o'quv moduli ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq etish bo'yicha taklif va tavsiyalar "Tarbiyaviy ishlar texnologiyalari" darsligi

mazmuniga singdirilgan va o'quv jarayoniga tatbiq etilgan. (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil, 4-martdagi 55-son buyrug'i). Natijada, bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga innovatsion tayyorlashning pedagogik imkoniyatlarini takomillashtirilgan modelini amaliyotga joriy etish aniqlashtirilgan;

bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlash modeli innovatsion yondashuvga asoslangan kollaboratsiya, keys-stadi (case-study), "Portfolio", "Blended learning", "Gamification", "Brainstorming", "Describe" texnologiyalarini real (Trenajyor, ko'rgazmalar-va-AKTlar) tabiiy (virtual-stendlar, sun'iy-intellekt-materiallari) bosma (ko'rgazmali plakatlari, panolar, chizmalar-va-sxemalar) vositasida amaliyotga joriy etilgan. (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil, 14-yanvardagi 02/01-01-14-son ma'lumotnomasi). Natijada oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv-metodik ta'minot mazmuni samaradorligini ta'minlashga xizmat qilgan;

bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga innovatsion tayyorlash samaradorligi reproduktiv, produktiv, qisman izlanuvchi va kreativ mezonlar asosida qoniqarsiz, qoniqarli, yaxshi hamda a'lo darajalar o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlash, shuningdek, mustaqil topshiriqlarni ishlab chiqish bo'yicha taklif va tavsiyalar "Tarbiya fanini o'qitish metodikasi" o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan va o'quv jarayoniga tatbiq etilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil, 9-iyuldagi 258-son buyrug'i). Natijada oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv-metodik ta'minot mazmuni samaradorligini ta'minlashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 20 tadan ortiq ilmiy-uslubiy ishlar, jumladan, 1 ta mualliflik guvohnomasi, 1 ta darslik, 1 ta o'quv qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, jumladan, 7 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, asosiy matn 130 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi hamda amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib

berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga innovatsion tayyorlashning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida Oliy ta’lim muassasalarida tyutorlik faoliyatining o‘rni va ahamiyati izohlangan. Bo‘lajak o‘qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga innovatsion tayyorlash-pedagogik muammo sifatida tavsiflanib, bo‘lajak o‘qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga innovatsion tayyorlash jarayonining amaliyotdagi holati kabi masalalar bayon qilingan.

XXI asrda jahon miqyosida ta’lim barqaror taraqqiyotni ta’minlovchi asosiy omil sifatida e’tirof etilib, 2030 yilgacha belgilangan xalqaro ta’lim konsepsiyasida barcha uchun butun hayot davomida sifatli ta’lim olishga imkoniyat yaratish dolzarb vazifa sifatida belgilandi. Bu uzluksiz ta’lim tizimini, jumladan, oliy ta’lim tizimini rivojlantirish va unda tyutorlik faoliyatini samarali tashkil etish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Mavjud manbalarga ko‘ra xorijda tyutorlik faoliyatining rivojlanish davrlarini quyidagi bosqichlarga ajratish maqsadga muvofiq:

1-bosqich: XV–XVI asrlar - tyutorlik faoliyati ta’lim oluvchilarning mustaqil o‘qishlariga ko‘maklashuvchi sifatida.

2-bosqich: XVI–XIX asrlar - tyutorlik faoliyati ingliz universiteti tizimida rasmiy tan olingan kasb sifatida.

3-bosqich: XIX–XX asrlar - tyutorlar va kitoblarni asosiy bilim manbai deb bilish mumkin bo‘lgan davrlar.

4-bosqich: XXI asr - tyutor yangi kasb sifatida: o‘qituvchi funksiyasini o‘zgartirish, kengaytirish va yangi lavozim majburiyatini belgilash.

Xususan mamlakatimizda, Prezidentimizning 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni hamda shu asosida qabul qilingan Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2021-yil 30-sentyabrdagi buyrug‘i va Nizomi oliy ta’lim muassasalarida yangicha tyutorlik tizimini joriy qilishga asos bo‘lgan edi.

Tyutorlik tizimi oliy ta’lim muassasasida tarbiya jarayonini tizimli va samarali amalga oshirishning muhim shakli va vositasidir. Tyutor – bu oliy ta’lim muassasasida faoliyat yuritadigan, tegishli malaka talablariga javob beradigan, yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo‘lgan xodim bo‘lib, o‘ziga biriktirilgan guruh talabalarining ta’lim olishlarida, shuningdek, darsdan bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishlarida ko‘maklashadi, ularni insonparvarlik, adolat, mehnatsevarlik, Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, beshta muhim tashabbus doirasida tashkil etilgan to‘garak va klublarga jalb etish, ta’lim olish jarayonida yuzaga keladigan barcha masala va muammoni o‘rnatilgan tartibda bartaraf etishga qaratilgan faoliyatni olib boradi.

Xorijiy oliy o‘quv yurtlarida zamonaviy tyutorlik tizimining tuzilishi uchta asosiy elementni o‘z ichiga oladi:

- guruhni boshqarish (boshqacha aytganda, kuratorlik), bu talabalarni o‘qish vaqtida o‘rganishni va ta‘til davrida ishlashni nazarda tutadi;

- talabaning universitetdagi hayotiga hamroh bo‘lishni o‘z ichiga olgan axloqiy murabbiylik;

-semestr yoki o‘quv yili davomida “talabalar ta‘limini ta‘minlaydigan tyutorlik” .

Tyutorning oliy ta‘lim muassasasidagi vazifalari quyidagilarni o‘z ichiga oladi: ta‘limiy vazifalar; metodik vazifalar; ma‘naviy vazifalar; psixologik yordam; mentorlik qilish; rivojlanishga yordam berish; munosabatlarni muvofiqlashtirish.

Oliy ta‘limda tyutorlar lavozim vazifalaridan kelib chiqqan holda quyidagi ishlarni amalga oshiradilar: ma‘ruzachi tomonidan o‘qitilayotgan fanni o‘zlashtirishda ta‘lim oluvchilarga yordam berish va shu orqali dunyoqarashi endi shakllanayotgan talabani muntazam ilm o‘rganishga odatlantirish; talabalarga vaqtini menejment qilish masalalarida ta‘sir ko‘rsatish; tanlagan sohasi, kasbiga muhabbat tuyg‘ularini tarbiyalash; talabaning kuchli taraflarini, ichki (yashirin) qobiliyatlarini yuzaga chiqarishga ko‘maklashish; talabani o‘z kamchiliklari ustida ishlashga o‘rgatish; talabalarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishiga ko‘maklash; talabalarni Vatanga, el-yurtga, milliy qadriyatlarimizga muhabbat ruhida tarbiyalash; talabalarni turli ilmiy to‘garaklarga jalb etish va h.k.

Tadqiqot davomida oliy ta‘lim muassasalarida tyutorlarni tanlashda kompetensiya yondashuvi asosida tyutorlar jamoasini shakllantirish uchun maqsadli usullarni taqdim etish kutiladi. Kompetensiyalar tizimini ishlab chiqish uchun adabiyotlarda keltirilgan bir qator usullar qo‘llanildi. Bular “kompetensiyalar lug‘ati” kabi metodlar va malaka talablari, professional standartlar, tyutorlik faoliyatini kuzatish uchun ekspertlar guruhlarini kabi an‘anaviy usullarni o‘z ichiga oladi. Tyutor kompetensiyasi – bu tizimli va samarali tarzda talaba bilan ishlash uchun kerakli bilim, ko‘nikmalar va qobiliyatlar to‘plamidir. Tyutorning kompetensiyasi quyidagi asosiy jihatlarni o‘z ichiga oladi:(1-rasmga qarang)



1-rasm. Tyutor kompetensiyalari

Tyutorning kompetensiyasi nafaqat ta'lim jarayonini boshqarish, balki talabaning akademik va shaxsiy rivojlanishiga ham to'liq yordam berishni o'z ichiga oladi. Bu kompetensiyalarni rivojlantirish orqali, tyutor talabalarga o'z ta'lim yo'nalishida muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlarini yaratadi.

Dissertatsiyaning **“Bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga innovatsion tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari”** nomli ikkinchi bobida bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga innovatsion tayyorlash jarayonining zamonaviy shakl, metod va vositalari aniqlangan hamda bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga innovatsion tayyorlashning zamonaviy pedagogik texnologiyalari ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, ushbu bobda bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga innovatsion tayyorlashning dasturiy ta'minoti ishlab chiqilgan.

Hozirgi ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarning kompetensiyasini oshirish va ularni tyutorlik faoliyatiga tayyorlash muhim ahamiyatga ega. Tyutorlik faoliyati – bu talabalarning individual o'quv jarayonini boshqarish, ularga ko'mak berish va ularning shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan pedagogik faoliyati bo'lib, innovatsion texnologiyalardan foydalanish bu jarayonning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Tahlillar natijasida tyutorlik faoliyatining zamonaviy shakllariga quyidagilarni misol keltirish mumkin: Kredit-modul tizimi; Onlayn va gibrid ta'lim; Loyihaviy ta'lim; Mahorat darslari va seminarlar; Individual tyutor maslahati (suhbati); Guruhli tyutor maslahati; Tutorial (tyutor seminari); Trening.


Tyutor ish shakllari - konsultatsiyalar, individual va guruhli o'quv mashg'ulotlari (seminarlar), tarbiyaviy tadbirlar, treninglar talabalarning yoshi va imkoniyatlarini hisobga olgan holda qo'llanilishi kerak. Tyutori qo'llab-quvvatlash (har qanday tashkiliy shaklda amalga oshirilganda) har doim individual maqsadli bo'ladi, shuning uchun uni amalga oshirishda va ma'lum bir talaba bilan o'zaro aloqa qilish uchun mos keladigan shaklni tanlashda moslashuvchanlik va o'zgaruvchanlikka rioya qilish kerak.

Tyutor ishining o'ziga xos shakllari, usullari va texnologiyalarini har safar tanlash o'qituvchining qat'iy individual tanlovi bo'lib, talabaning yoshi va shaxsiy xususiyatlariga, shuningdek, o'qituvchining shaxsiy va kasbiy afzalliklariga bog'liq.

Oliy ta'lim muassasalarida tyutorlik faoliyatini amalga oshirish tajribasini tahlil qilib, shuni aytishimiz mumkinki, tyutorlik faoliyatining vositalariga maslahat berish, portfolio tuzish, savol berish, faol tinglash, kognitiv qiziqishlarni qo'llab-quvvatlash kabilarni kiritishimiz mumkin.

Tyutorlik faoliyatida zamonaviy ta'lim metodlarini qo'llash mumkin, ular quyidagilar: an'anaviy metodlar; noan'anaviy metodlar, innovatsion ta'lim.

Ilmiy tadqiqot ishlarini o'rganish va tahlil qilish natijasida hamda amaliy pedagogik tajribadan kelib chiqib, bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga innovatsion tayyorlashning pedagogik imkoniyatlarini takomillashtirilgan modeli ishlab chiqildi. (2-rasmga qarang).



Tyutorlik faoliyati texnologiyalari shaxslararo, kompetensiyaviy, faoliyatga hamda gumanistik yondashuvlarga asoslanadi va tajribali (tyutor) va kam tajribali (kam bilimli) talabalar bilan muloqotda bo‘lishni o‘z ichiga oladi. Tyutorlik texnologiyalariga quyidagilar kiradi:

“Blended learning” aralash ta’lim texnologiyasi
-“Microlearning” qisqa hajmdagi ma’lumotlarni faol o‘zlashtirish texnologiyasi

- “Gamification” o‘yinlashtirilgan ta’lim texnologiyasi

- Individual va guruhli maslahatlar texnologiyasi;

- Muammoli savollarni formulalash texnologiyasi;

- Faol tinglash texnologiyasi;

- Loyiha texnologiyasi;

- Interaktiv texnologiya;

- Keys-texnologiya (maxsus vaziyatlarni hal qilish);

- Portfolio texnologiyasi;

Tyutorlik faoliyatining barcha bosqichlarida “Portfolio” pedagogik texnologiyasi qo‘llaniladi va tyutor va bo‘lajak tyutor ish faoliyati natijalarini tuzish va tuzilmaviy shakllantirish uchun portfolio tayyorlanadi. Tyutor bo‘lajak tyutor portfoliosini tuzish va tahlil qilish jarayonini tashkil qiladi hamda o‘z portfoliosida qo‘llangan pedagogik strategiyalar va ularning natijalarini qayd etadi. Portfolio turli tiplarga bo‘linadi.

Ma’lumotlarni yig‘uvchi (informatsion) portfolio. Ma’lumotlarni yig‘uvchi portfolio tyutor va bo‘lajak tyutor o‘rtasidagi keyingi hamkorlik tahlillari uchun materiallarni yig‘ish imkonini beradi. Bu turdagi portfolio o‘quv loyihasini ishlab chiqish, tadqiqot o‘tkazish, ta’limiy sayohatni rejalashtirish yoki “Munozaralar” o‘yiniga tayyorgarlik jarayonlarida qo‘llaniladi. Tyutor va bo‘lajak tyutor ma’lumotlarni yig‘uvchi portfolio ma’lumotlari bilan ishlab, rejalarning bajarilishi, ularni tahlil qilish, vaqtni samarali sarflash, rivojlanish bosqichlari va ularning sabablarini aniqlashda foydalanadi.

Prezentatsion portfolio. Prezentatsion portfolio birinchi tipdagi portfolio asosida shakllantiriladi va individual ta’lim tarixi doirasida erishilgan natijalarni namoyish etish uchun mo‘ljallangan.

Yutuqlar portfoliosi. Yutuqlar portfoliosi bo‘lajak tyutorning tanlagan ta’limiy sohasidagi yutuqlari va natijalarini namoyish etish uchun tuzilgan hujjatlar to‘plamidir. Yutuqlar portfoliosida sertifikat, guvohnomalar va ilmiy maqola hamda tezislar, sport va san’at sohasida erishilgan natijalar joy olishi mumkin.

Tyutorlik faoliyatida loyiha texnologiyasi ham samara beradi, jumladan loyiha texnologiyasi amalga oshirish faoliyatining kengligi va vaqt bo‘yicha tuzilishi, shartlari, normalash va refleksiyaning hisobga olgan holda izchil bosqichlarni bajarishni nazarda tutadi. Har bir bosqichda uni amalga oshirish jarayoni belgilanadi va bu umumiy holda tyutorning faoliyati tartibini belgilaydi (1-jadvalga qarang).

Bo'lajak tyutor faoliyatini loyihalash texnologiyasi

Bosqichlar	Amaliyotlar	Natija
1. Tayyorgarlik	- Tyutorlik kuzatuviga bo'lgan talabani o'rganish va shakllantirish.	Bo'lajak o'qituvchining maqsadi va talablari aniqlanadi.
	- Ijtimoiy-o'quv holatni diagnostika qilish.	Mavjud muammolar va rivojlanish imkoniyatlari tahlil qilinadi.
	- Shaxsiy-resurs xaritasini tuzish.	Bo'lajak tyutorning rivojlanish yo'nalishi va resurslari aniqlanadi.
2.Rejalashtirish	- Individual ta'lim dasturini (ITD) ishlab chiqish.	Bo'lajak tyutorning maqsad va harakat rejasi aniqlanadi.
	- Individual ta'lim marshrutini shakllantirish va harakat yo'nalishini belgilash.	Harakat yo'nalishi va asosiy vazifalar belgilanadi.
3. Amalga oshirish	- ITDni amalga oshirish shartlarini yaratish uchun tyutorlik qo'llab-quvvatlash.	Bo'lajak tyutorga ko'maklashuvchi muhit tashkil etiladi.
	- Tyutorlik o'zaro aloqalarini tashkil qilish: maslahatlar, treninglar va boshqalar.	Ta'lim jarayoniga bo'lajak tyutor jalb etiladi.
	- Shaxsni shaxsiy tajribaga boy va ahamiyatli voqealarga jalb qilish.	Bo'lajak tyutorga shaxsiy tajriba orqali ta'lim berish ta'minlanadi.
	- Natijalarning oraliq diagnostikasini o'tkazish va rejani tuzatish.	Harakatlar rejasi lozim bo'lsa, tuzatiladi.
4. Refleksiya	- Olingan tajribani anglash.	Bo'lajak tyutor o'z tajribasini baholaydi.
	- Natijani dastlabki reja bilan taqqoslash.	Reja va natijalarning muvofiqligi aniqlanadi.
	- Olingan natijaning shaxsiy va ijtimoiy hayotda qo'llanish imkoniyatlarini aniqlash.	Bo'lajak tyutor kelajakda foydalanish uchun o'z potensialini baholaydi.
5.Individual ta'lim dasturini loyihalash algoritmi	-Pedagogik-psixologik diagnostika natijalarini o'rganish.	Shaxsning individual xususiyatlari o'rganiladi.
	- Dasturning vaqt bosqichlarini belgilash.	Maqsad va vazifalar bo'yicha vaqt yo'nalishlari aniqlanadi.
	- Dastur mazmunini ishlab chiqish.	Mazmunli ta'lim rejasi shakllantiriladi.
	- Turli mutaxassislarning ishtirokini rejalashtirish.	Bo'lajak tyutor bilan ishlash uchun o'zaro muvofiqlashuv ta'minlanadi.
	- Monitoring mezonlarini belgilash.	Natijalarni baholash uchun mezonlar ishlab chiqiladi.
	- Portfolio tayyorlash.	Bo'lajak tyutorning ta'limdagi yutuqlari va natijalari hujjatlantiriladi.

Tadqiqot davomida "Future tutor" moduli yaratildi. Ushbu modul O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan DGU №50195 guvohnoma asosida tasdiqlangan. Modul bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashga qaratilgan bo'lib, umumiy 30 soat: 14 soat ma'ruza, 16 soat amaliy mashg'ulotlardan iborat.

Modulni o‘qitishdan maqsad – bo‘lajak o‘qituvchilarni tyutorlik faoliyatining tarixiy-falsafiy asoslari va tyutorlik faoliyatiga doir bilimlar bilan qurollantirish.

Modulning vazifasi –tyutorlik faoliyati sharoitida talabalarda kompetensiyalarni shakllantirish; bo‘lajak o‘qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashning mazmun-mohiyati (“hamkor”, “tajriba o‘tkazuvchi”, “loyihayaratuvchi”, “fasilitator”, “innovator”)ni egallashdan iborat. Future tutor o‘quv modulining mashg‘ulotlar taqsimoti jadval ko‘rinishida keltirilgan.(2-jadvalga qarang)

2-jadval

“Future tutor” o‘quv moduli mashg‘ulotlar taqsimoti

№	Mavzular ro‘yxati	Mashg‘u lot shakli	Ajratilgan soat
1	Tyutorlik faoliyatining tarixiy falsafiy asoslari.	Ma’ruza	2
2	Tyutorlik faoliyatining muhim funksiya va tamoyillari	Ma’ruza	2
3	Respublika oliy ta’lim muassasalarida tyutorlik amaliyotining joriy etilishi.	Ma’ruza	2
4	Tyutor pedagogik faoliyatini tashkil etishning ilmiy-nazariy asoslari.	Ma’ruza	2
5	Tyutorik faoliyatida tarbiyaviy ishlarni tashkil etish asoslari.	Ma’ruza	2
6	Talabalarda kasbiy refleksiyaning shakllantirishda tyutorning o‘rni.	Ma’ruza	2
7	Tyutorlik faoliyatini amalga oshirishda muhim shakl va vositalar.	Ma’ruza	2
8	Tyutor zamonaviy kasb sifatida.	Amaliy	2
9	Tyutorlik faoliyati ijtimoiy-pedagogik qo‘llab-quvvatlash sifatida.	Amaliy	2
10	Tyutorlik faoliyatida talabalar ta’limini nazorat qilish.	Amaliy	2
11	Tyutorning tarbiyaviy ta’sir etish yo‘llari.	Amaliy	2
12	Talabalar bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish.	Amaliy	2
13	Ma’naviy-marifiy tadbirlarni tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari.	Amaliy	2
14	Tyutor va talaba o‘rtasidagi muloqotning o‘ziga xos xususiyatlari	Amaliy	2
15	Tyutorning oila, mahalla, ta’lim muassasasi hamkorligidagi faoliyati.	Amaliy	2
	Jami soat:		30 soat

Tadqiqot davomida bo‘lajak o‘qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlash bo‘yicha amaliy ishlarimizni ushbu dasturiy ta’minot asosida tashkil etdik. Ushbu “Future tutor” o‘quv moduli tarkibida yuqoridagi mavzular kurs sifatida berilgan. Har bir kurs tarkibida quyidagilar mavjud.

- mavzu bo‘yicha vedio dars;
- mavzu taqdimoti (ppt ko‘rinishida);
- matn ko‘rinishidagi ma’lumot;

- microlearning texnologiyasi asosida tayyorlangan infografika;
 -gamification texnologiyasi asosida, learning.app va kahoot.com ilovalari yordamida tayyorlangan topshiriqlar.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlash moduli talabalar tomonidan tyutorlik faoliyatining mazmun-mohiyati, tarixiy taraqqiyoti hamda tyutorning oliy ta‘lim muassasasidagi maqsad, vazifa va funksiyalari to‘g‘risida bilimlar bilan qurollantirishga xizmat qildi. Ushbu modul tajriba-sinov maydonlarida amaliy dasturiy ta‘minot sifatida xizmat qildi.

Dissertatsiyaning **“Oliy ta‘lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga innovatsion tayyorlash jarayonining samaradorligi”** nomli uchinchi bobida tajriba-sinov ishlari mazmuni va natijalari bayon etilgan.

Tajriba-sinov ishlarini o‘tkazish jarayonini samarali tashkil etish uchun barcha shart-sharoit yaratildi. Dastlab tajriba-sinov ishlarini olib borish uchun dastur tuzildi. Asoslovchi tajriba-sinov ishlari ushbu dasturga muvofiq olib borildi.

